

NAMANGAN VILOYATIDA SANOATNI HUDUDIIY TASHKIL ETISHNING MINTAQAVIIY IQTISODIIY DETERMINANTLARI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Nuritdinov Botir Kodirxanovich

Namangan davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: nbotir7676@mail.ru
+998772554288

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda Namangan viloyatida sanoatni hududiy tashkil etishning mintaqaviy iqtisodiy determinantlari hamda ularning sanoat rivojlanishiga ta'siri ekonometrik yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida tuman va shaharlar kesimida sanoat korxonalarining hududiy taqsimlanishiga investitsiya hajmi, mehnat resurslari salohiyati, transport-logistika va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi, urbanizatsiya darajasi, bozor sig'imi hamda iqtisodiy faollik kabi omillarning ta'siri ko'p omilli regressiya modeli orqali baholangan. Tahlil natijalari investitsion faollik, iqtisodiy faol aholi ulushi va infratuzilmaviy ta'minlanganlik sanoatning hududiy rivojlanishi va korxonalarning joylashuviga statistik jihatdan ijobiy hamda sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqladi. Hududlar o'rtasidagi sanoat rivojlanishidagi tafovutlar iqtisodiy resurslar va infratuzilma bilan ta'minlanganlik darajasidagi farqlar bilan izohlanishi asoslandi. Tadqiqot yakunida sanoatni hududiy tashkil etish samaradorligini oshirish, hududlararo nomutanosibliklarni kamaytirish va mintaqalarning sanoat salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Namangan viloyati, sanoatni hududiy tashkil etish, mintaqaviy iqtisodiyot, iqtisodiy determinantlar, ekonometrik tahlil, ko'p omilli regressiya modeli, hududiy differentsiallashtirish, investitsiya, transport-logistika infratuzilmasi, mehnat resurslari, sanoat salohiyati, hududiy rivojlanish.

Аннотация

В данном исследовании на основе эконометрического подхода проанализированы региональные экономические детерминанты территориальной организации промышленности в Наманганской области и их влияние на промышленное развитие. В рамках исследования с использованием многофакторной регрессионной модели оценено влияние таких факторов, как объем инвестиций, потенциал трудовых ресурсов, уровень развития транспортно-логистической и инженерно-коммуникационной инфраструктуры, уровень урбанизации, емкость рынка и экономическая активность, на территориальное размещение промышленных предприятий в разрезе районов и городов. Результаты анализа показали, что инвестиционная активность, доля экономически активного населения и уровень инфраструктурной обеспеченности оказывают статистически значимое положительное влияние на территориальное развитие промышленности и размещение промышленных предприятий. Кроме того, установлено, что различия в уровне промышленного

развития между территориями обусловлены неодинаковой обеспеченностью экономическими ресурсами и инфраструктурой. По итогам исследования разработаны научно-практические рекомендации, направленные на повышение эффективности территориальной организации промышленности, сокращение межтерриториальных диспропорций и более полное использование промышленного потенциала регионов.

Ключевые слова: Наманганская область, территориальная организация промышленности, региональная экономика, экономические детерминанты, эконометрический анализ, многофакторная регрессионная модель, территориальная дифференциация, инвестиции, транспортно-логистическая инфраструктура, трудовые ресурсы, промышленный потенциал, региональное развитие.

Abstract

This study examines the regional economic determinants of the territorial organization of industry in Namangan Region and their impact on industrial development using an econometric approach. A multiple regression model was employed to evaluate the effects of investment volume, labor resource potential, transport and logistics infrastructure, engineering and utility infrastructure, urbanization level, market capacity, and economic activity on the spatial distribution of industrial enterprises across the districts and cities of the region. The empirical findings indicate that investment activity, the share of the economically active population, and the level of infrastructure development have a statistically significant and positive effect on the territorial development of industry and the location of industrial enterprises. Furthermore, the study reveals that disparities in industrial development across territories are largely explained by differences in the availability of economic resources and infrastructure. Based on the findings, scientific and practical recommendations are proposed to improve the efficiency of the territorial organization of industry, reduce regional disparities, and enhance the effective utilization of regional industrial potential.

Keywords: Namangan Region, territorial organization of industry, regional economics, economic determinants, econometric analysis, multiple regression model, territorial differentiation, investment, transport and logistics infrastructure, labor resources, industrial potential, regional development.

KIRISH

O'zbekistonda mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda sanoat korxonalarini joylashtirish masalasi bugungi kunda ekstensiv o'sishdan intensiv va innovatsion-klasterli modelga o'tish bosqichi bilan xarakterlanadi, mamlakatda sanoat quvvatlarini hududlar bo'ylab taqsimlashda disproporsiyalar (nomutanosibliklar) hamon saqlanib qolmoqda, jami sanoat mahsulotining qariyb 45-50 foizi Toshkent shahri, Toshkent va Navoiy viloyatlariga hissasiga to'g'ri keladi. Namangan kabi aholi zich joylashgan mintaqalarda esa sanoat korxonalarini joylashtirishda yer resurslarining cheklanganligi, infratuzilma (elektr energiyasi va gaz ta'minoti) tarmoqlarining o'tkazish quvvati pastligi hamda institutsional nazoratning zaifligi asosiy muammolar

sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekistonda "o'sish qutblari" va ixtisoslashgan klasterlar tizimi joriy etilmoqda, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari (KSZ) tarkibida, "vertikal integratsiya" tamoyili asosida joylashtirishdir, Namangan viloyati misolida yer samaradorligini oshirish uchun ko'p qavatli sanoat binolarini qurish hamda korxonalarini "Yashil sanoat" standartlari asosida raqamli monitoring qilish mexanizmlari taklif etilmoqda[1].

Sanoat korxonalarining hududiy joylashuvi mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi, ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligi va hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda sanoat ishlab chiqarishini hududlar bo'yicha oqilona joylashtirish iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, logistika xarajatlarini minimallashtirish, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishning muhim sharti sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jahon amaliyotida sanoat korxonalarining hududiy joylashuvini tadqiq etish masalalari klassik joylashtirish nazariyalaridan boshlab zamonaviy fazoviy iqtisodiyot konsepsiyalarigacha keng o'rganilgan. Xususan, A. Veberning sanoatni joylashtirish nazariyasida transport xarajatlari, mehnat resurslari va aglomeratsiya omillari ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirishning asosiy determinantlari sifatida e'tirof etilgan [2]. Keyinchalik M. Porterning klaster nazariyasi, P. Krugmanning yangi iqtisodiy geografiya konsepsiyasi hamda aglomeratsiya iqtisodiyoti yondashuvlari sanoatning hududiy rivojlanishiga bozor sig'imi, infratuzilmaviy ta'minlanganlik, innovatsion muhit va institutsional omillarning sezilarli ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslab berdi [3].

Sanoatni hududiy tashkil etish jarayonlariga raqamlashtirish, logistika tizimlarining takomillashuvi, investitsion muhit va infratuzilma sifati kabi omillarning ta'siri yanada kuchaydi. Jahon iqtisodiy forumining "Future of Industrial Regions" hisobotida ta'kidlanishicha, raqamli infratuzilmaning rivojlanganligi, transport-kommunikatsiya tizimlarining integratsiyalashganligi va investitsion faollik darajasi sanoat korxonalarining hududiy joylashuv samaradorligini belgilovchi ustuvor omillar hisoblanadi [4]. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarining optimal joylashuvi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot raqobatbardoshligini oshirish va hududiy iqtisodiy o'sishni jadallashtirish imkonini beradi.

OECDning "Industrial Transitions in Regions" hisobotida hududiy sanoat siyosatini shakllantirishda transport infratuzilmasi, mehnat bozori salohiyati, urbanizatsiya darajasi va investitsiya oqimlarini hisobga olish zarurligi qayd etilgan [4]. Mazkur omillar ishlab chiqarishning fazoviy tashkil etilishiga bevosita ta'sir ko'rsatib, mintaqalarning iqtisodiy ixtisoslashuvi va sanoat salohiyatining shakllanishini belgilaydi.

O'zbekistonda ham hududlarni kompleks sanoatlashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va sanoatni hududlar bo'yicha mutanosib rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi

Farmonida¹ hududlarning mavjud resurs salohiyatidan samarali foydalanish, sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish va yangi sanoat zonalarini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [5]. Bu esa sanoat korxonalarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillarni chuqur ilmiy tadqiq etish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Dunyo bo'yicha mintaqaviy rivojlanish va joylashtirish nazariyasiga asos bo'lgan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan, ularni tadqiqot ishlarida aks ettirilgan va shu jumladan, mehnat taqsimoti va hududiy ixtisoslashuvi, qiyosiy ustunlik nazariyasi, sanoat rayonlari va tashqi tejamkorlik, ishlab chiqarish muvozanati bilan Adam Smith, David Rikardo, Alfred Marshall, Stanley Jevons, John Bates Clark, Johann H. von Thünen, Wilhelm Launhardt, Alfred Weber, Walter Christaller, Robert Boyer, Gary Hamel tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular tomonidan o'rganilgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan "Bozor sharoitlari mintaqaviy darajadagi munosabatlar xususiyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi, bu esa mintaqaviy rivojlanish muammolarini tadqiq etish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo'yicha yangi nazariy-uslubiy yondashuvlarni aniqlashtirish hamda ishlab chiqish zaruriyatini belgilab berdi. Ushbu yondashuvlar mahalliy olimlar - R.A. Belousov, A.G. Granberg, U. Izard, N.D. Matrusov, V.I. Vidyapin, V.V. Leontyev, N.N. Nekrasov, B.C. Nemchinov, K.F. Usmanova, K.N. Yusupov, A.V. Yangirov, Kistanov V.V, Kopilov N.V va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

O'zbekistonda sanoatni joylashtirish muammolari va yechimlari bilan Trostyanskiy D.V, Soliev A.A, Ro'zmetov B.R, Ortiqov A.S, Gulyamov S.S, Sapaev I.S, Abdullev I.S, Sabirov Q.A, Raximov X.SHlar tomonidan mintaqaviy sanoat siyosatini shakllantirish, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish prinsiplari, sanoat tugunlarini shakllantirishga e'tibor qaratilgan bo'lib unga ko'ra, olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, yalpi hududiy mahsulot yaratilishida munosib o'rin egallaydi. Bunda sanoat korxonalarini oqilona joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar, mamlakat va mintaqalar iqtisodiyotidagi olib boriladigan davlat siyosati, ularni faoliyat yuritishi kabi masalalaridagi mavjud muammolar hukumat darajasida bartaraf etilishi tahlil qilingan.

Hozirga qadar olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda asosan umumiy nazariy va amaliy jihatlar yoritilgan bo'lib, Namangan sharoitida sanoat korxonalarini joylashtirish, ayniqsa shandort nazariyalari asosida joylashtirish va rivojlantirish masalalari, uning samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish va hududiy jihatdan tadqiq etish kabi masalalar to'liq yechimini topmagan. Bu esa ushbu mavzuni dissertatsiya tadqiqoti obyekti sifatida tanlash va uning ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyatini asoslab beruvchi omil hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Namangan viloyati respublikaning sanoat salohiyati yuqori bo'lgan hududlaridan biri hisoblanib, unda sanoat korxonalarining tumanlar kesimida notekis joylashuvi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

kuzatiladi. Ayrim tumanlarda sanoat korxonalari yuqori darajada konsentratsiyalashgan bo'lsa, ayrim hududlarda sanoatlashtirish darajasi nisbatan pastligicha qolmoqda. Mazkur holat sanoat korxonalarining hududiy joylashuviga ta'sir etuvchi investitsiyalar hajmi, mehnat resurslari, infratuzilma ta'minoti, urbanizatsiya darajasi va bozor sig'imi kabi omillarni ekonometrik usullar asosida baholash zaruratini yuzaga keltiradi.

Empirik tahlillar 2020-2025-yillar uchun Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida amalga oshirildi. Tadqiqot natijalarini ilmiy asoslash maqsadida hududlar bo'yicha sanoat mahsulotlari hajmi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsuloti, ularning o'sish sur'atlari hamda tarmoq tarkibidagi ulush ko'rsatkichlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Olingan natijalar sanoat ishlab chiqarishining hududiy konsentratsiyalashuv darajasi, iqtisodiy o'sish qutblarining shakllanish xususiyatlari va tumanlararo tafovutlarning dinamikasini aniqlash imkonini berdi.

1-jadval

Namangan viloyati hududlarida sanoat mahsulotlari hajmining dinamikasi, mlrd. so'm¹

Hududlar nomi	Yillar					
	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan vil.	11011,9	14695,1	18120,5	21906,8	31696,2	40087,4
Namangan sh	4356,5	6091,0	7052,1	8174,6	10609,3	11975,8
Mingbuloq	545,7	623,6	751,0	648,5	540,4	980,3
Kosonsoy	314,4	589,9	970,2	1366,2	1843,3	1831,5
Namangan	1036,3	949,5	1062,4	1186,0	1915,4	1936,0
Norin	316,2	435,4	233,1	300,7	367,4	677,6
Pop	506,2	439,5	545,3	523,7	755,4	989,5
To'raqo'rg'on	1545,1	2511,8	3368,4	4871,9	5875,9	6632,3
Uychi	640,8	891,3	1028,1	1258,1	1609,4	2058,8
Uchqo'rg'on	782,2	834,7	951,6	801,2	969,4	1030,6
Chortoq	187,2	282,5	394,8	538,8	699,3	1063,0
Chust	584,0	801,1	1483,6	1920,9	2491,5	3251,2
Yangiqo'rg'on	197,3	244,9	279,9	316,3	485,5	579,1

Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari hajmi dinamikasi 2020-2025 yillar davomida viloyat bo'yicha barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Umumiy ishlab chiqarish hajmi 11011,9 mlrd so'mdan 40087,4 mlrd so'mgacha oshib, sanoat sektorining tezkor kengayishi kuzatilgan. Bu o'sish asosan Namangan shahri va To'raqo'rg'on tumanida yuqori konsentratsiyalashgan bo'lib, ular viloyat sanoat ishlab chiqarishining asosiy drayverlari sifatida shakllangan. Xususan, Namangan shahrida ishlab chiqarish hajmi 4356,5 mlrd so'mdan 11975,8 mlrd so'mga yetib, urban sanoat aglomeratsiyasi kuchayganini ko'rsatadi. To'raqo'rg'on tumanida esa 1545,1 mlrd so'mdan 6632,3 mlrd so'mgacha o'sish qayd etilib, ishlab chiqarishning klasterlashuvi va investitsion faollik yuqoriligi bilan izohlanadi.

¹ Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Biroq hududlar o'rtasida sezilarli differentsiatsiya saqlanib qolgan. Kosonsoy, Pop va Norin tumanlarida o'sish sur'atlari nisbatan beqaror bo'lib, ayrim yillarda pasayish tendensiyalari kuzatiladi, bu esa infratuzilma cheklovlari va investitsion oqimlarning notekis taqsimlanganligini anglatadi. Mingbuloq tumani eng past ko'rsatkichlarga ega hududlardan biri bo'lib qolmoqda, bu uning sanoat bazasi sust rivojlanganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida so'nggi yillarda ijobiy dinamikaning kuchayishi hududiy diversifikatsiya jarayonlarining bosqichma-bosqich kengayayotganini ko'rsatadi.

2-jadval

Namangan viloyatida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining o'sish sur'ati, foizda¹.

Hududlar nomi	Ishlab chiqaradigan sanoat	To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	Kiyim ishlab chiqarish	Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish
Namangan vil.	100	100	100	100
Namangan sh	29,7	28,3	28,9	25,3
Mingbuloq	2,9	8,6	1,2	1,0
Kosonsoy	5,5	16,1	1,5	1,7
Namangan	5,5	5,6	10	1,5
Norin	2,0	0,3	1,9	1,2
Pop	2,5	0,5	3,2	0,8
To'raqo'rg'on	7,1	13,7	20,1	0,9
Uychi	6,2	7,8	3,4	56,9
Uchqo'rg'on	2,9	6,3	0,8	0,5
Chortoq	3,2	0,2	2,6	0,6
Chust	9,5	2,8	12,3	1,4
Yangiqo'rg'on	1,7	0,3	2,1	1,1

3-jadval ma'lumotlari Namangan viloyatida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining tarmoq kesimidagi hududiy ixtisoslashuvi sezilarli darajada differentsiyalashganini ko'rsatadi. Umumiy sanoat ishlab chiqarishida Namangan shahri yetakchi o'rinni egallab, viloyat ko'rsatkichining 29,7 foizini shakllantirmoqda. Shuningdek, Chust (9,5 foiz), To'raqo'rg'on (7,1 foiz), Uychi (6,2 foiz) hamda Kosonsoy va Namangan tumanlari (har biri 5,5 foiz) sanoat ishlab chiqarishida nisbatan yuqori ulushga ega. Tarmoqlar kesimida esa hududiy ixtisoslashuv yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda Namangan shahri (28,3 foiz) va To'raqo'rg'on tumani (13,7 foiz) yetakchilik qilayotgan bo'lsa, Kosonsoy tumanining ulushi ham yuqori darajada (16,1 foiz) shakllangan. Kiyim ishlab chiqarishda To'raqo'rg'on tumani mutlaq ustunlikka ega bo'lib, uning ulushi 20,1 foizni tashkil etadi. Chust (12,3 foiz) hamda Namangan tumani (10,0 foiz) ushbu yo'nalishda muhim sanoat markazlari sifatida ajralib turadi.

Namangan viloyati hududlarida sanoat rivojlanishining kompozit indeksi natijalari hududiy iqtisodiy tizimning kuchli fazoviy geterogenligini va markaz-

¹ Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

periferiya modelining institutsional mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi. Eng yuqori qiymat Namangan shahrida $CI = 0,91$ bo'lib, bu hududning nafaqat ishlab chiqarish hajmi, balki tarmoq diversifikatsiyasi va fazoviy konsentratsiya bo'yicha ham dominant pozitsiyaga ega ekanligini anglatadi. To'raqo'rg'on (0,84), Chust (0,79) va Kosonsoy (0,76) tumanlari esa ikkilamchi o'sish qutblari sifatida shakllanib, ularda aglomeratsion samaralar va investitsion oqimlarning nisbatan barqarorligi kuzatiladi. Aksincha, Norin (0,42), Uchqo'rg'on (0,40), Chortoq (0,38) va Mingbuloq (0,41) tumanlarida indeksning pastligi ishlab chiqarish tizimining fragmentatsiyalashganligi, tarmoq diversifikatsiyasining yetarli emasligi hamda fazoviy izolyatsiya darajasining yuqoriligini ifodalaydi. Bu holat hududlar o'rtasida iqtisodiy resurslar va ishlab chiqarish imkoniyatlarining notekis taqsimlanishi natijasida yuzaga kelgan strukturaviy nomutanosiblikni aks ettiradi.

3-jadval.

Namangan viloyati hududlarida sanoat rivojlanishining kompozit indeksi¹

Hududlar nomi	CI (0-1)	Rivojlanish darajasi	Fazoviy rol
Namangan sh	0.91	Juda yuqori	Markaziy o'sish qutbi
To'raqo'rg'on	0.84	Juda yuqori	Industrial klaster
Chust	0.79	Yuqori	Diversifikatsiyalashgan zona
Kosonsoy	0.76	Yuqori	O'suvchi periferik markaz
Uychi	0.63	O'rtacha-yuqori	Barqarorlashayotgan zona
Yangiqo'rg'on	0.55	O'rtacha	Boshlang'ich industriallashuv
Namangan t	0.52	O'rtacha	Transformatsion hudud
Pop	0.48	Past-o'rtacha	Zaif industrial baza
Mingbuloq	0.44	Past	Resurs cheklangan zona
Norin	0.42	Past	Strukturaviy stagnatsiya
Uchqo'rg'on	0.40	Past	Past diversifikatsiya
Chortoq	0.38	Past	Fragmentatsiyalashgan rivojlanish

Kompozit indeksning tarkibiy komponentlari tahlili shuni ko'rsatadiki, sanoat rivojlanishining asosiy determinantlari sifatida investitsion faollik, tarmoq diversifikatsiyasi va fazoviy spillover mexanizmlari ustun rol o'ynamoqda. Xususan, yuqori indeksli hududlarda ($CI \geq 0,75$) iqtisodiy faoliyatning klasterlashuvi kuchli bo'lib, bu holat ishlab chiqarish samaradorligining oshishi va tranzaksion xarajatlarning kamayishi orqali qo'shimcha o'sish impulsini shakllantirmoqda. Past indeksli hududlarda esa ($CI \leq 0,45$) "past o'sish tuzog'i" (low-growth trap) belgilarini kuzatish mumkin bo'lib, bu holat faqat kapital yetishmovchiligi emas, balki institutsional zaiflik va infratuzilma nomuvofiqligi bilan ham izohlanadi. Natijalar fazoviy ekonometrik nuqtai nazardan qaralganda, hududlar o'rtasida sezilarli darajadagi spatial dependence mavjudligini va bu jarayonda spillover effektlar to'liq simmetrik emasligini ko'rsatadi, bu esa differensial hududiy siyosat zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Mazkur tadqiqot natijalari Namangan viloyatida sanoat korxonalarining hududiy joylashuvi va aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi hamda

¹ Manba: muallif ishlanmasi

o'sish sur'atlari hududlar kesimida sezilarli darajada differensiyalashganligini ko'rsatdi. Tahlillar sanoat ishlab chiqarishining asosan Namangan shahri, To'raqo'rg'on, Chust va Kosonsoy tumanlarida yuqori darajada konsentratsiyalashganligini, ayrim chekka hududlarda esa sanoat salohiyatidan yetarli darajada foydalanilmayotganligini tasdiqladi. Ekonometrik baholash natijalari investitsion faollik, transport-logistika infratuzilmasi, mehnat resurslari salohiyati va urbanizatsiya darajasi sanoat korxonalarining hududiy joylashuviga statistik jihatdan sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar ekanligini aniqladi.

Birinchidan, 2020-2025-yillarda Namangan viloyatida sanoat mahsulotlari hajmi 11 011,9 mlrd so'mdan 40 087,4 mlrd so'mga yoki qariyb 3,6 baravarga oshgan bo'lsa, aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi 3 878,7 ming so'mdan 12 680,9 ming so'mga yetgan. Biroq ushbu o'sish hududlar bo'yicha bir xil taqsimlanmagan. Xususan, 2025-yilda aholi jon boshiga sanoat mahsuloti hajmi To'raqo'rg'on tumanida 26 196,3 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, Yangiqo'rg'on tumanida ushbu ko'rsatkich atigi 2 372,8 ming so'mga teng bo'lgan. Bu esa hududlar o'rtasidagi tafovutning 11 baravardan ortiq ekanligini ko'rsatib, viloyatda sanoat rivojlanishining markazlashgan modelga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, tarmoqlar kesimidagi tahlillar sanoat ishlab chiqarishining hududiy ixtisoslashuvi kuchli ekanligini tasdiqladi. Xususan, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarishining 56,9 foizi Uychi tumaniga, kiyim ishlab chiqarishning 20,1 foizi To'raqo'rg'on tumaniga, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning 28,3 foizi esa Namangan shahriga to'g'ri kelmoqda. Mazkur holat hududlarda aglomeratsiya samarasi, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va klasterlashuv jarayonlari rivojlanayotganini ko'rsatsa-da, sanoat salohiyatining hududlar bo'yicha nomutanosib taqsimlanayotganligini ham anglatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy taklif sifatida hududiy sanoat rivojlanishini baholash uchun investitsion faollik, transport infratuzilmasi, mehnat resurslari sifati, urbanizatsiya darajasi va bozor sig'imini o'zida mujassamlashtiruvchi kompleks integral ko'rsatkich - sanoatni joylashtirish samaradorligi indeksini amaliyotga joriy etish tavsiya etiladi. Mazkur indeks hududlar kesimida sanoat salohiyatini muntazam monitoring qilish, mavjud nomutanosibliklarni aniqlash va davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi. Shuningdek, kelgusida tadqiqotlarda fazoviy ekonometrik modellarni (Spatial Lag Model, Spatial Error Model, Spatial Durbin Model) qo'llash orqali hududlararo spillover effektlarini baholash va sanoat rivojlanishining fazoviy determinantlarini aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Amaliy tavsiya sifatida iqtisodiy faolligi past bo'lgan Mingbuloq, Norin, Yangiqo'rg'on va Uchqo'rg'on tumanlarida sanoat infratuzilmasini modernizatsiya qilish, kichik sanoat zonalarini kengaytirish hamda maqsadli investitsiya paketlarini joriy etish zarur. Shu bilan birga, tumanlararo ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish, logistika markazlarini tashkil etish, sanoat klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish hududiy nomutanosibliklarni qisqartirishning muhim vositasi

hisoblanadi. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida sanoat ishlab chiqarishining hududiy diversifikatsiyasi kuchayadi, yangi ish oʻrinlari yaratiladi, aholi daromadlari oshadi va Namangan viloyatining uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishi taʼminlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Abidhadjayev, U. (2024). "Oʻzbekiston hududlarida sanoat klasterlarini rivojlantirish va oʻsish qutblarini shakllantirishning strategik yoʻnalishlari". // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, №5, 2024-yil sentyabr-oktyabr soni
2. Weber, A. Theory of the Location of Industries. Chicago: The University of Chicago Press, 1929. - 256 p.
3. Krugman, P. Geography and Trade. Cambridge, MA: MIT Press, 1991. - 142 p.
4. World Economic Forum. Future of Industrial Clusters and Regional Competitiveness. Geneva: WEF, 2024.
5. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Industrial Transitions in Regions: Bridging Growth and Inclusiveness. Paris: OECD Publishing, 2022.
6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063> .
7. Anselin, L. Spatial Econometrics: Methods and Models. Dordrecht: Kluwer Academic Publishers, 1988.
8. Baltagi, B. H. Econometric Analysis of Panel Data. Chichester: John Wiley & Sons, 2005.
9. Venables, A. J. Industrial location in developing countries // World Bank Research Observer. 2008. Vol. 23, No. 2. Pp. 219-246.
10. Henderson, J. V. Cities and development // Journal of Economic Perspectives. 2010. Vol. 24, No. 1. Pp. 143-158.
11. Lucas, R. E. On the mechanics of economic development // Journal of Monetary Economics. 1988. Vol. 22, No. 1. Pp. 3-42.
12. United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). Industrial Development Report: The Future of Industrialization in a Post-Pandemic World. Vienna: UNIDO, 2022.
13. Venables, A. J. Evaluating urban transport improvements: Cost-benefit analysis in the presence of agglomeration and income taxation // Journal of Transport Economics and Policy. 2007. Vol. 41, No. 2. Pp. 173-188.
14. Guo, L., & Liu, Y. Urban-industrial development and regional economic growth: A spatial econometric approach // SAGE Open. 2022. Vol. 12, No. 3.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:
Ingliz tili muharriri:
Rus tili muharriri:
Musahhih:
Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Karimova Shirin Zoxid qizi
Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi** rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**